

**SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA SURXON VOHASIGA
OID LEKSEMALARNING LINGVISTIK TAHLILI**

*Termiz davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti
3-bosqich talabasi
Abdurahmonova Farangiz*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev asarlarida qoʻllanilgan Surxon vohasiga oid leksemalarning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Yozuvchi ijodida uchraydigan hududiy soʻzlar, dialektal birliklar va etnografik leksika Surxondaryo vohasining tabiiy-madaniy muhitini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida koʻrib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida ushbu leksemalarning semantik, morfologik va stilistik jihatlari oʻrganilib, ularning badiiy matndagi funksiyasi aniqlanadi. Shuningdek, muallifning til vositasida milliy koloritni yaratish mahorati ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: Shukur Xolmirzayev, Surxon vohasi, leksema, dialektizm, hududiy leksika, lingvistik tahlil, semantika, stilistika, badiiy matn, milliy kolorit global muammo, Xorazm, mentalitet, urf-ofatlar, Orol muammosi.

Annotation: This article analyzes the linguistic features of lexemes related to the Surkhan oasis used in the works of Shukur Xolmirzayev. Regional words, dialectal units, and ethnographic vocabulary found in the writer's works are examined as important tools reflecting the natural and cultural environment of the Surkhandarya region. In the course of the research, the semantic, morphological, and stylistic aspects of these lexemes are studied, and their function in the literary text is identified. Furthermore, the author's mastery in creating national color through language is revealed.

Keywords: Shukur Xolmirzayev, Surkhan oasis, lexeme, dialectism, regional vocabulary, linguistic analysis, semantics, stylistics, literary text, national colorit

Аннотация: В данной статье проводится лингвистический анализ лексем, связанных с Сурхандарьинским оазисом, в произведениях Shukur Xolmirzayev. Региональные слова, диалектные единицы и этнографическая лексика, встречающиеся в творчестве писателя, рассматриваются как важное средство отражения природно-культурной среды Сурхандарьинского региона. В ходе исследования изучаются семантические, морфологические и стилистические особенности данных лексем, а также определяется их функция в художественном тексте. Кроме того, раскрывается мастерство автора в создании национального колорита с помощью языковых средств.

Ключевые слова: Шукур Холмирзаев, Сурхандарьинский оазис, лексема, диалектизм, региональная лексика, лингвистический анализ, семантика, стилистика, художественный текст, национальный колорит.

Shukur Xolmirzayev o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning asarlarida Surxon vohasining tabiati, turmush tarzi va milliy qadriyatlari o‘ziga xos badiiy ifodasini topgan. Yozuvchi o‘z ijodida hududiy leksikadan keng va mahorat bilan foydalanib, asarlariga tabiiylik hamda milliy ruh bag‘ishlaydi. Ayniqsa, Surxondaryo vohasiga oid leksemalar uning asarlarida muhim o‘rin tutadi.

Surxon vohasiga oid leksemalar — bu ma’lum hududga xos bo‘lgan so‘z va iboralar bo‘lib, ular xalqning yashash tarzi, urf-odatlarini, tabiiy muhitini aks ettiradi. Xolmirzayev asarlarida bunday birliklar ko‘pincha qahramonlar nutqida, tasviriy vositalarda va muallif bayonida uchraydi. Bu esa asarlarning realizmini kuchaytiradi hamda o‘quvchini voqelik muhitiga yaqinlashtiradi.

Burnog‘i – 1. O‘tgan yil (oy, kun, hafta)dan oldingi. Burnog‘i kun. Burnog‘i oy. Burnog‘i yili otasi bezgak bilan og‘rib qazo qilganidan beri ro‘zg‘or Abdu Sirojning yosh boshiga tushib qoldi. R.Rahmon, Mehr ko‘zda.

Burnog‘i qishning oxirlari edi. Men qandaydir yumush bilan, eshikni taqillatmasdan, bekaning uychasiga kirdim. “Yoshlik”.

2. Kam qo‘llanadi: Burun yashab o‘tganlar, burungilar. Burnog‘ilar masalidurki, bo‘lar ishning boshiga, yaxshi kelur qoshiga. Gulxaniy, Zarbulmasal.

Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 7-bet.

Bo‘limli – kam qo‘llanadi: 1. Bo‘lali, bo‘liq, durkun, yetilgan. Beklar, qadimning bo‘limli yigiti deb, uning [To‘g‘onbekning] yelkasini qoqdilar. Oybek, Navoiy.

2. Ishning ko‘zini biladigan, ishbilarmon. Yosh bo‘lsa ham, o‘zi bo‘limligina, qizlarga bo‘shroq. “Yusuf va Ahmad”.

Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 26-bet.

Bo‘tana – 1. Loyqa, qum, tuproq kabilar aralashgan (suv haqida). Bir joyga to‘planib, tutqun bo‘lib turgan bo‘tana suv qirg‘oqni buzib yubordi. E.Usmonov. Yolqin.

Soy va ariqlarda sumalakrang bo‘tana shiddati oshib boradi, pishqiradi. S.Nurov, Narvon.

2. Loyqasimon, kir tusli, xira. Qiyom bo‘tana bo‘lmay, tiniq tusda bo‘lishi lozim. K.Mahmudov, O‘zbek taomlari.

Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 34-bet.

Bo‘yra – bo‘yra, bordon; qamish. Tozalangan qamish cho‘pidan to‘qilgan to‘shama. Eslaringizdami... Zokirxo‘ja qassoblar gilam ustida o‘tirganda, biz o‘tirishga bo‘yra ham topolmas edik. P.Tursun, O‘qituvchi.

Gadoyboy bo‘yraga chordana qurib o‘tirdi-da, fotiha qildi. H.G‘ulom, Feruza. Tolzordagi tepasi bo‘yra bilan yopilgan yozlik choyxonada odam uncha ko‘p emasdi. S.Ahmad, Saylanma.

Bir bo‘yra 1) eni-bo‘yi bo‘yra hajmicha keladigan. Bir bo‘yra yer. ...uyning orqa devori bir bo‘yra eni kesib tushirilgan bo‘lib, qorayib ko‘rinardi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

Bir bo‘yra yerning pichani o‘rib olinsa, bir mashina chiqaveradi. M.Ahmadjonov, Balli, zarbdorlar!

Rixsixon bir bo‘yragina yerga ekilgan piyozni o‘toq qilayotgan edi. S.Zunnunova, Go‘dak hidi;

2) bir bo‘yraning ustiga joy bo‘ladigan. Bir bo‘yra sholi. Bo‘yra puli tarixiy. Eski maktablarda talabalar o‘tiradigan bo‘yralarni yangilash uchun vaqti-vaqti bilan ota-onalardan olingan pul. – Chog‘imda, payshanba puli ham, supurgi puli ham, bo‘yra puli ham olmasa kerak. Yo olarmikan-a? – Yo‘g‘e, o‘libdimi! M.Ismoilij, Farg‘ona tong otquncha.

Hozirgi eski maktablarimizda bolalar har payshanba non yoki nonning pulini olib boradilar. Bundan boshqa bo‘yra puli, ko‘mir puli... ham bor. Oybek, Tanlangan asarlar.

Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 34-bet.

Girdig‘um – kaltabaqay, miqti, baqaloq (odam haqida). Choyxonachi ellik yoshlarda bo‘lgan yumaloq, girdig‘um odam. Oybek, Tanlangan asarlar.

Kallador, girdig‘umdan kelgan rais haddan tashqari xushchaqchaq edi. M.Muhamedov, Qahramon izidan.

Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 48-bet.

Govmish – yirik shoxli hayvon; ho‘kiz. Zotli, sersut sigir. Sakkiz sigir asraguncha, Bir govmish asra. Maqol.

Ola govmish podaga qo‘shilmaydi, birday uyda yotadi. T. Murod, Qo‘shiq.

Ayniqsa ola govmishiga jonim achidi. S. Siyoev, Yorug‘lik.

Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 68-bet.

Gungurs – Jussasi katta; gavgdali, gumbazday. -Zovur qaziyotganlarning qayeri sizdan kam. Gavdangiz gungursday, bir yigitcha quvvatingiz bo‘lsa,

og'irimizni yengil qilishingiz kerakmasmi! – dedi Valijon Asqaraliga. H. Nazir, Olmos.

Soatovga qorong'ida gungursday bo'lib ko'rinayotgan har bir adir, har bir tepaning tagida bir gap bordek tuyular edi. X. Sultonov, Onamning yurti.

Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 90-bet.

Guppa – guppa tashlamoq, zarb bilan yiqilmoq; zarb bilan o'zini otmoq. Katta oqar suvni sira kechmagan qozoqiy cho'l oti qamchi zarbidan o'zini guppa daryoga tashladi. A. Hakimov, Ilon izidan.

Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 57-bet.

Guvala – loydan qo'lda yasalib, oftobda quritilgan, tagi yassi cho'zinchoq qurilish materiali. Guvala qilmoq (quymoq). Guvala devor. Qishloqdagi paxsa devorli qo'rg'onchalar boy, badavlat odamlarniki bo'lib, guvaladan qurilgan pastak uylar kambag'al-qashshoqlarning boshpanalari edi. P.Tursun, O'qituvchi.

Toqqa qaratib solingan uy peshayvoniga guvala taxlab qo'yilgan edi. X.Sultonov, Onamning yurti.

Guvala bosh 1) guvalaga o'xshash cho'zinchoq bosh; 2) dag'al: ahmoq, nodon. Vatan xoiniga homiylik qilib, yolg'on gapirganimi? Eh, guvala bosh. S.Karomatov, So'nggi barxan.

Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 36-bet.

Kanop – lotincha zig'ir, kanop. 1. Poyasidan tola olinadigan, bir yillik baland o'tsimon o'simlik; uning tolasi. Kanop ekilgan maydon. Kanop fabrikasi. Kanop ip. Kanop arqon.

2. Shu toladan eshilgan ip. Qop og'zini kanop bilan bog'lamoq. Qop-qanorni kanop bilan tikadilar. Kanopning bir uchi katta xodaga, ikkinchi uchi qamishlarga bog'langan, bularga hamma vaqt katta baliqlar ilinadi. J.Sharipov, Xorazm. Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 26-bet.

Kapa – vaqtincha yashash uchun daraxt shoxlari va yirik o‘t-o‘lanlar bilan o‘rab quriladigan xona, yozlik uy; chayla. Hamma o‘ziga qamishdan kapa qilib olgan. S. Ahmad, Odamning izi.

Bahor va yoz kunlari kapada kun o‘tkazish mumkin-a, ammo qahraton qishda, ayniqsa kechalari, sira chidab turib bo‘lmasdi. J. Sharipov, Xora Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 84-bet.

Karch – aynan karj. Qovun so‘yildi. Smirnov xuddi asalning rangiga va ta‘miga o‘xshash bir karchni og‘ziga soldi-yu, mazasiga qoyil bo‘ldi. Sh. Rashidov, Bo‘rondan kuchli.

Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 111-bet.

Kayvoni – kayvonga oid; qoracha. 1. Yoshi ulug‘, ko‘pni ko‘rgan, ko‘p narsani biladigan. Ertasi kun peshinda Sanam xolani, kayvonilar qatori, bo‘ljak bir to‘yning maslahatiga chaqirishgan edi. P. Qodirov, Qora ko‘zlar.

Kayvoni momo kelinni to‘ylovchilarga salom berdira berdi. T. Murod, Ot kishnagan oqshom.

2. Umuman, ko‘p narsa biladigan, uddaburon. O‘n bir arava to‘n ortti.. sop qizlardan o‘n bitta kayvoni qiz qo‘shib.. aravaga mindirdi. “Oysuluv”.

3. Shevada: dasturxonchi. Ayollar sizni kayvoni bo‘lsin deyapti. T. Murod, Ot kishnagan oqshom.

Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 109-bet.

Keraga – o‘tovning chetanga o‘xshatib ishlangan devori. Shamol kuchayib o‘kirmoqda, Sherali o‘tirgan o‘tov, yordam so‘rab yalinayotganday, titrab-tebranar, keragalari zorlanayotganday g‘ijirlar edi. S. Anorboev, Sherali.

Shabada o‘tovning keragalarini asta g‘ichirlatadi, saraton yaylovning boshni aylantiradigan epkinini olib keladi. A. Muxtor, Chinor.

Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 59-bet.

Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev asarlarida Surxon vohasiga oid leksemalar muhim badiiy va lingvistik ahamiyat kasb etadi. Ular orqali

yozuvchi nafaqat vohaning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi, balki o‘zbek xalqining boy til va madaniyatini ham yuksak darajada ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Холмирзаев Шукур. Танланган асарлар: Ҳикоялар. –Т.: “Шарқ”2009.
2. Танланган асарлар: Ҳикоялар. –Т.: “Шарқ”2020.
3. То‘хта Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. O‘zbekiston nashriyoti. Toshkent-2002.
4. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish . Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent- 2004.